

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MATN TAHLILI USTIDA ISHLASHGA O'RGATISH

Shodiyeva Jamila Xolboyevna

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn tahlili ustida ishlashga o'rgatishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, talabalar bilan ishlash jarayonida matnni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar hamda amaliy mashqlar haqida so'z yuritiladi. Matn tahlili orqali talabalar nafaqat matn mazmunini anglaydi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: matn tahlili, pedagogik mahorat, boshlang'ich ta'lim, metodika, interfaol metodlar, o'qituvchi kompetensiyasi.

ОБУЧЕНИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ РАБОТЕ НАД АНАЛИЗОМ ТЕКСТА

Шодиева Жамила Холбоевна

*старший преподаватель Самаркандского областного центра
педагогического мастерства*

Аннотация. В данной статье освещаются эффективные методы обучения будущих учителей начальных классов, обучающихся в системе высшего образования, работе над анализом текста. Также рассматриваются интерактивные методы и практические упражнения, способствующие формированию навыков анализа текста у студентов в процессе работы с ними. Благодаря анализу текста студенты не только понимают содержание текста, но и получают возможность

развивать у учащихся самостоятельное мышление, умение делать логические выводы и культуру речи.

Ключевые слова: анализ текста, педагогическое мастерство, начальное образование, методика, интерактивные методы, компетенция учителя.

TEACHING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO WORK ON TEXT ANALYSIS

Shodiyeva Jamila Kholboyevna

Senior Lecturer at the Samarkand Regional Center for Pedagogical Excellence

Abstract. *This article highlights effective methods for teaching future primary school teachers studying in higher education institutions to work on text analysis. It also discusses interactive methods and practical exercises that help develop students' text analysis skills during the learning process. Through text analysis, students not only understand the content of the text but also gain opportunities to develop learners' independent thinking, logical reasoning, and speech culture.*

Keywords: *text analysis, pedagogical skills, primary education, methodology, interactive methods, teacher competence.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yuqori talablar qo'yimoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalari o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni sifatli tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf darslarida matn bilan ishlash, uni tushunish va tahlil qilish o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirishda muhim omildir. Demak, bo'lajak o'qituvchi avvalo o'zi matn tahlili metodikasini mukammal egallashi lozim. Matn tahlili o'qituvchiga matn mazmunini chuqur anglash, asosiy g'oyani ajratib olish,

voqealar o'rtasidagi bog'lanishni tushuntirish hamda o'quvchilarda fikrlash faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimi insonlarning ko'nikmalarni o'zlashtirish va shaxsiy sifatlarini oshirish ularning rivojlanishida asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi — bolalik davrining eng sermahsul, eng mas'uliyatli pallasi — har bir insonning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi davr sanaladi. Shu sababli ham boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan metodlar, didaktik yondashuvlar, o'quv materiallarining sifati va mazmuni har doim alohida e'tibor markazida bo'lishi lozim. Bu jarayonda muhim o'rin egallagan matn tahlili o'qish, tinglash, tushunish, so'zlash, yozish va tafakkur qilish ko'nikmalari o'quvchining kelgusidagi ta'lim olishi jarayonida mustahkam asos vazifasini bajaradi.

Matn tahlili – bu matn mazmunini, tuzilishini, g'oyasini va til xususiyatlarini chuqur o'rganish jarayonidir. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari jarayonida matn bilan ishlash o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

- matn mazmunini tushunish;
- asosiy g'oya va fikrni aniqlash;
- qahramonlarning xatti-harakatini baholash;
- voqealar ketma-ketligini aniqlash;
- mustaqil fikr bildirish.

Oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarni matn tahliliga o'rgatish jarayonida ularga nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy mashg'ulotlar orqali ko'nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki kelajakda ular boshlang'ich sinf o'quvchilariga matn ustida ishlashni o'rgatishlari kerak bo'ladi.

Matn tahlili orqali o'quvchilarda o'qish madaniyati, nutq boyligi hamda tafakkur rivojlanadi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilar matn bilan ishlash metodikasini puxta egallashlari zarur.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni matn tahlili ustida ishlashga o'rgatishda turli pedagogik usullardan foydalanish mumkin. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Savol-javob metodi

Mazkur metod talabalarni matn ustida faol fikrlashga undaydi. O'qituvchi matn asosida muammoli savollar beradi. Masalan:

- Matnning asosiy g'oyasi nima?
- Qahramonning xatti-harakatiga qanday baho berasiz?
- Agar siz shu vaziyatda bo'lsangiz nima qilgan bo'lardingiz?

Bu savollar talabalarni mustaqil fikr yuritishga undaydi.

Klaster metodi

Klaster metodi matn mazmunini tizimli ravishda tushunishga yordam beradi. Talabalar matndagi asosiy tushunchalarni markazga yozib, ular bilan bog'liq fikrlarni tarmoqlar ko'rinishida ifodalaydilar.

Aktivator savollar

Bu savollar orqali talabalar matn haqida erkin fikr bildiradilar. Natijada matnning turli jihatlari ochib beriladi.

Rolli o'yinlar

Matn qahramonlari rolini ijro etish orqali talabalar voqealarni yanada chuqurroq anglaydilar.

Oliy ta'limda amaliy mashg'ulot davomida talabalarda matn tahlili ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi mashqlar samarali hisoblanadi:

1. Matnga sarlavha qo'yish. Matn mazmunini umumlashtirib, uning mohiyatini ifodalovchi qisqa va mazmunli nom tanlash jarayonidir. Oliy ta'limda bu jarayon nafaqat oddiy nom tanlash, balki matnning semantik mazmunini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarni bu ko'nikmaga o'rgatishda quyidagi metodik yondashuvlar qo'llanadi:

- matn mazmunini chuqur o'qish va tahlil qilish;
- asosiy voqea yoki fikrni aniqlash;
- muallifning maqsadini tushunish;
- sarlavhaning informativ va badiiy funksiyasini baholash.

Talabalar bir matnga bir nechta sarlavha variantlarini ishlab chiqib, ularning qaysi biri mazmunga ko'proq mos kelishini tahlil qilish orqali analitik fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradilar. Bu jarayon kelajakda o'quvchilarga matnni tushuntirishda ham muhim metodik tajriba beradi

2. Asosiy g'oyani aniqlash. Bu matn orqali muallif o'quvchiga etkazmoqchi bo'lgan etakchi fikr yoki xulosadir. Oliy ta'limda talabalar asosiy g'oyani aniqlashni matnning mazmuniy, mantiqiy va g'oyaviy tahlili orqali o'rganadilar.

Talabalarga quyidagilar o'rgatiladi:

- matnning mavzusini aniqlash;
- voqealar rivojini tahlil qilish;
- muallif pozitsiyasini aniqlash;
- matndan kelib chiqadigan umumiy xulosani shakllantirish.

Bu jarayonda talabalar ko'pincha matnning mavzusi va asosiy g'oyasi o'rtasidagi farqni ham tahlil qiladilar. Mavzu matn nimaga bag'ishlanganini bildirsa, asosiy g'oya muallifning shu mavzu orqali qanday fikrni ilgari surayotganini anglatadi.

3. Reja tuzish. Matn mazmunini mantiqiy qismlarga ajratish va ularni qisqa bandlar orqali ifodalash jarayonidir. Oliy ta'limda reja tuzish talabalarni matn tuzilishini tahlil qilishga o'rgatadigan muhim metodik vosita hisoblanadi.

Talabalar quyidagi reja turlarini o'rganadilar:

- oddiy reja
- murakkab reja
- tezisli reja

Reja tuzish orqali talabalar:

- matnning kompozitsion tuzilishini anglaydilar;
- asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajrata oladilar;
- matnni qayta hikoya qilish yoki tahlil qilish jarayonini tizimlashtiradilar.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun bu ko'nikma ayniqsa muhim, chunki ular kelajakda o'quvchilarga matnni reja asosida tushuntirish va qayta hikoya qilishni o'rgatadilar.

4. Qahramonlarga tavsif berish — bu matndagi obrazlarning xarakteri, fe'l-atvori, xulq-atvori va ijtimoiy fazilatlarini tahlil qilish jarayonidir.

Oliy ta'limda talabalar qahramonlarni tahlil qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor berishni o'rganadilar: Ya'ni, qahramonning tashqi ko'rinishi, uning harakatlari va qarorlari, boshqa qahramonlar bilan munosabati, ijobiy va salbiy sifatlari, muallifning qahramonga munosabati tahlil qilinadi.

Bu jarayon talabalarining badiiy tahlil, mantiqiy fikrlash va pedagogik talqin ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar qahramonlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarda axloqiy va tarbiyaviy xulosalar chiqarish usullarini ham o'rganadilar.

5. Matnni davom ettirish. Matnni davom ettirishda berilgan matn asosida voqealar rivojini mantiqan davom ettirish orqali yangi mazmun yaratish jarayoni amalga oshirish usullari o'zlashtiriladi.

Oliy ta'limda bu usul talabalar ijodiy va metodik fikrlashini rivojlantirish uchun qo'llanadi. Talabalar matnni davom ettirishda quyidagi tamoyillarga amal qilishni o'rganadilar:

- voqealar mantiqiy izchillikda rivojlanishi;
- qahramonlarning xarakteri saqlanishi;
- matnning g'oyaviy yo'nalishi buzilmasligi;
- badiiy ifoda vositalaridan foydalanish.

Bu mashq bo'lajak o'qituvchilarga o'quvchilarning ijodiy nutqini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni ishlab chiqish imkonini beradi

Matn tahlili elementlarini oliy ta'lim jarayonida o'rgatish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon orqali talabalar matnni chuqur tahlil qilish, uning mazmunini pedagogik jihatdan talqin qilish hamda o'quvchilarga matn bilan ishlash ko'nikmalarini samarali o'rgatish metodikasini egallaydilar.

Matn oxiriga ijodiy davom yozish orqali talabalar tasavvurini rivojlantiradilar.

Bunday mashqlar talabalarning analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish kengayib bormoqda. Matn tahlilini o'rgatishda quyidagi

texnologiyalardan foydalanish mumkin: elektron darsliklar, interaktiv taqdimotlar, onlayn testlar, ta'limiy platformalar.

Masalan, taqdimotlar orqali matn tuzilishi vizual tarzda ko'rsatib beriladi. Bu esa talabalar uchun mavzuni yanada tushunarli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn tahlili ustida ishlashga o'rgatish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Matn tahlili o'qituvchining metodik mahoratini oshiradi hamda o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarga matn tahlilini o'rgatishda interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Shuningdek, matn ustida ishlash jarayoni talabalarni mustaqil fikrlashga, tahliliy yondashuvga hamda ijodiy faoliyatga undaydi. Unda talabalarining matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati, matnni tahlil qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar o'zlashtirishi ko'zda tutiladi. Shuningdek, matn bilan ishlash – bu shunchaki o'qish emas, balki o'quvchining ongli idroki, tushunishi, so'z boyligini kengaytirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash malakasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi murakkab, ammo zaruriy faoliyat turi ekanligini anglaydilar.

Shu bois pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida matn tahlili metodikasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. Monografiya. – T.: 2003. B – 48-70.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. – 144 b.
3. Shodiyeva J., Qoraboyev H., Yuldasheva S. Matn ustida ishlash metodikasi. Darslik. – Samarqand 2025. – 113 b.